



Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni outsorsing usulida tashkil etish bo'yicha tanlov komissiyasi yig'ilishining 7-son bayonidan

KO'CHIRMA

2021 yil 23 sentyabr

Toshkent shahar

Raislik qildi: **B.Onorboyev** - Maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari, tanlov komissiya raisi

Qatnashdilar: **S.Mirzakarimov** – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limi boshlig'i, rais o'rinbosari

Tanlov komissiyasi a'zolari: U.Muxiddinova, X.Buriyev, B.Xidirboyev (S.Mirjalilova), Sh.Pardayev, A.Agasiyev, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati mutaxassisi A.Kucharov, O'zbekiston Oshpazlar uyushmasi mutaxassisi T.Umaraliyev;

Namangan viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi studiyasida – boshqarma boshlig'i o'rinbosari A.Yusupov, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limi mutaxassisi A.Qambaraliyev, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari boshliqlari (*ro'yxat bo'yicha*).

Tanlov takliflari 2021 yil 15 va 16 sentyabr kuni soat 9-00 dan 18-00 gacha ko'rib chiqildi va baholandi.

KUN TARTIBI:

Namangan viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni outsorsing usulida tashkil etish bo'yicha tanlov jarayonini o'tkazish to'g'risida

(B.Onorboyev, S.Mirzakarimov..., B.Onorboyev)

Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 30 iyundagi 407-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Maktabgacha ta'lim vazirining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish

tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 5 iyuldagi 123-sonli buyrug‘i qabul qilingan.

Yuqorida keltirilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida Maktabgacha ta‘lim vazirligi tomonidan respublikada **1 694** ta davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni ovqatlantirishni outsorsing usulida tashkil etish uchun **370** ta lotlar bo‘yicha, **xususan Namangan viloyatida 23 ta lotlar (117-139 lotlar) bo‘yicha 113 ta davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun tanlov e‘lon qilingan.**

Ushbu tanlov matni Maktabgacha ta‘lim vazirligining veb-sahifasiga 2021 yil 6 avgust kuni joylashtirilgan.

Tanlovda ishtirok etish uchun joriy yilning 27 avgust holatiga respublika bo‘yicha jami **334** nafar, **xususan Namangan viloyati bo‘yicha 29 nafar tadbirkorlar tomonidan hujjatlar kelib tushgan.**

Tanlov komissiyasining raisi tomonidan tanlovni o‘tkazish jarayoni Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi 407-son **qarori bilan tasdiqlangan Tanlov hujjatlari asosida tashkil etilishi ta‘kidlab o‘tildi hamda ishtirokchilarni tanlovni o‘tkazish tartibi bilan tanishtirildi.**

Namangan viloyatida tanlovga qo‘yilgan **23** ta lotdan **19** ta lotga takliflar bo‘yicha **96** ta davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari hamda tanlovda ishtirok etish uchun hujjat taqdim etgan **29** nafar tadbirkorlar to‘g‘risida ma‘lumot berildi **(1-va 2-illovalar).**

Tanlovga qo‘yilgan 123-, 124-, 130-, 131-lotga umuman taklif kelib tushmaganligi sababli lotlar o‘ynalmadi.

Tanlov komissiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi 407-son qarori bilan tasdiqlangan Tartibning 1-ilovasi 1, 2, 3, 4, 5, 6-shakllariga muvofiq **29** ta talabgor korxonalarining tashqi konvert hujjatlari mosligi qatian o‘rganilib chiqildi.

Malaka talablari natijalariga ko‘ra, **29** nafar ishtirokchilarning hujjatlari Tartibda belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlandi hamda Tartib talablariga mos ravishda hujjatlari mavjud bo‘lgan **5** nafar ishtirokchilar tanlovning ichki konvert hujjatlari o‘rganilib ishtirok etishlari maqsadga muvofiq, deb topildi.

Malaka talablari natijalari mazkur bayonning **3-ilovasida** keltirilgan.

Tanlov komissiyasining qarori bilan malaka talablaridan o‘tmagan tanlov ishtirokchilari tanlovda qatnashishdan chetlashtirildi.

Tanlov komissiyasi tomonidan tanlovning **5 nafar** ishtirokchilarning “Ichki hujjatlari”, ya‘ni texnik va tijoriy takliflari o‘rganildi va baholandi.

Texnik va tijoriy takliflarni baholash natijalari mazkur bayonning **4-ilovasida** keltirilgan.

Namangan viloyati davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni outsorsing usulida tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan tanlov natijalari asosida Tanlov komissiyasi yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. Tanlov natijalariga asosan:

117-lot bo'yicha

“Bolajon noza servis savdo” MCHJ **100 ball** bilan **1-o‘rin**. (*Namangan shahar, Ziyoli ko‘chasi 21 uy*) tanlov g‘olibi;

“Madadkor Taminot Savdo” MCHJ **95 ball** bilan **2-o‘rin**. (*Namangan shahar, marg‘ilon MFY Isfarhon 18 uy*); zaxiradagi g‘olibi deb hisoblansin.

118- lot bo'yicha

“Madadkor Taminot Savdo” MCHJ **95 ball** bilan **1-o‘rin**(*Namangan shahar, marg‘ilon MFY Isfarhon 18 uy*) tanlov g‘olibi;

“Bolajon noza servis savdo” MCHJ **80 ball** bilan **2-o‘rin** (*Namangan shahar, Ziyoli ko‘chasi 21 uy*); zaxiradagi g‘olibi deb hisoblansin.

119-lot bo'yicha

“Madadkor Taminot Savdo” MCHJ **95 ball** bilan **1-o‘rin**(*Namangan shahar, marg‘ilon MFY Isfarhon 18 uy*) tanlov g‘olibi;

“Bolajon noza servis savdo” MCHJ **90 ball** bilan **2-o‘rin** (*Namangan shahar, Ziyoli kychasi 21 uy*);

“Navbaxor Zamin Oziq-Ovqat” MCHJ **65 ball** bilan **3-o‘rin** (*Namangan tumani, Qo‘shchinor MFY*) zaxiradagi g‘olibi deb hisoblansin.

120-lot bo'yicha

“Madadkor Taminot Savdo” MCHJ **95 ball** bilan **1-o‘rin**(*Namangan shahar, marg‘ilon MFY Isfarhon 18 uy*) tanlov g‘olibi;

“Bolajon noza servis savdo” MCHJ **90 ball** bilan **2-o‘rin** (*Namangan shahar, Ziyoli ko‘chasi 21 uy*); zaxiradagi g‘olibi deb hisoblansin.

128-lot bo'yicha

“Oziq-Ovqat” MCHJ **70 ball** bilan **1-o‘rin**(*Namangan shahar, Toshkent ko‘chasi 1 uy*) tanlov g‘olibi;

“1 TT Xizmat markazi” **65 ball** bilan **2-o‘rin** (*Namangan shahar, Davlatobod tumani, To‘qimachilar ko‘chasi, 2 uy*) zaxiradagi g‘olibi deb hisoblansin.

2. Tanlov g‘oliblari:

117-lot bo'yicha **“Bolajon noza servis savdo”** MCHJ yillik **10 foiz** ustama bilan xizmat ko‘rsatish orqali **854 mln.** so‘m investitsiya;

118- lot bo'yicha "**Madadkor Taminot Savdo**" MCHJ yillik **15 foiz** ustama bilan xizmat ko'rsatish orqali **273 mln.** so'm investitsiya;

119-lot bo'yicha "**Madadkor Taminot Savdo**" MCHJ yillik **15 foiz** ustama bilan xizmat ko'rsatish orqali **310 mln.** so'm investitsiya;

120-lot bo'yicha "**Madadkor Taminot Savdo**" MCHJ yillik **15 foiz** ustama bilan xizmat ko'rsatish orqali **446 mln.** so'm investitsiya;

128-lot bo'yicha "**Oziq-Ovqat**" MCHJ yillik **15 foiz** ustama bilan xizmat ko'rsatish orqali **306 mln.** so'm investitsiya kiritish majburiyati yuklatilsin.

3. Investitsiya mablag'lari birinchi navbatda Outsorser kompaniyasi tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltiriladi.

4. Tanlov g'oliblari tomonidan investitsiya majburiyatlarini bajarish muddatlari kechiktirilgan holatda tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan outsorsing xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnomalar bekor qilinadi.

Bunda, tanlov g'oliblari tomonidan shartnoma bekor qilinguncha qadar kiritilgan investitsiya mablag'lari qaytarib berilmaydi.

5. Namangan viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshlig'i H.Yusupova, Namangan shahar maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'iga:

2021 yilning 1 oktyabridan tanlovda g'olib bo'lgan tadbirkor bilan **bir yil muddatga** tuzilayotgan shartnomalar loyihasida tadbirkorlar tomonidan outsorsing xizmatini ko'rsatish uchun taklif etilgan ustama miqdori, kiritilishi belgilangan investitsiya majburiyatlari miqdori va muddatlari aniq ko'rsatilgan bo'lishini ta'minlash;

har chorakda outsorsing xizmati ko'rsatilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Kuzatuv kengashlari tomonidan ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish;

tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish jarayonida Outsorser korxonasi tomonidan kamchiliklarga yo'l qo'yish holatlari aniqlanganda Maktabgacha ta'lim vazirligining Respublika komissiyasiga Outsorser faoliyati bo'yicha xulosa kiritish;

tanlov jarayonida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos sharoitlarni yaratish bo'yicha Outsorser tomonidan taklif qilingan investitsiya majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajarilishini doimiy monitoring qilish va talab qilish;

outsorser tomonidan kiritilgan investitsiya majburiyatlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazish;

outsorser kompaniya tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag'larni tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan o'z vaqtida o'tkazib berilishini ta'minlash;

har chorak yakunida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida bolalarni sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish holati yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni Maktabgacha ta'lim vazirligining Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limiga kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

Agarda outsorser tomonidan tanlovdagi takliflariga ko'ra belgilangan muddatlarda investitsiya mablag'lari to'liq kiritilganda, o'z faoliyatida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshirganda, kuzatuv kengashi va ota-onalar tomonidan e'tirozlar bo'lmaganda, Tanlov komissiyasiga shartnoma muddati kelgusi yillarga uzaytirilishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

2021 yilning 1 oktabriga qadar shartnoma muddati tugaydigan outsorserlar bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish hamda ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotlarining shtatlar jadvaliga oshxonaxodimlari lavozimlarini kiritilishini ta'minlasin.

6. Moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish boshqarmasi (Z.Usanov) 2021 yilning 1 oktabridan outsorsing shartnomalari bekor qilingan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oshxonaxodimlari lavozimlarini kiritish bo'yicha shtatlar jadvaliga o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasin.

7. Belgilab qo'yilsinki, Tanlov g'oliblari tomonidan belgilangan muddatlarda shartnomalar imzolamagan holatda, shuningdek, tanlov g'olibi zimmasiga yuklatilgan investitsiya majburiyatlarining o'z muddatida bajarmasligi natijasida shartnoma bekor qilingan holatda zaxiradagi g'olib (tanlov natijalariga ko'ra g'olibdan keyingi o'rinni olgan) ishtirokchi bilan shartnoma imzolash masalasi Respublika tanlov komissiyasining tegishli qarori bilan amalga oshiriladi.

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limi boshlig'i S.Mirzakarimovga:

har chorakda mazkur bayon ijrosi yuzasidan vazirlik rahbariyatiga axborot kiritish;

outsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etayotgan korxonalar tomonidan tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirishni tashkil etish darajasini muntazam ravishda o'rganib borish;

o'rganishda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan zudlik bilan vazirlik rahbariyatiga bildirgi kiritish;

tanlov g'oliblari zimmasiga yuklatilgan investitsion majburiyatlarni o'z muddatida bajarilishi hamda tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan ushbu mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishini ta'minlash yuzasidan doimiy monitoring o'rnatish;

har chorak yakuni bo'yicha tanlov g'oliblari tomonidan moliyaviy majburiyatlarning bajarilishi bo'yicha tahliliy ma'lumotni Respublika tanlov komissiyasiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Mazkur bayon ijrosini nazorat qilish Maktabgacha ta'lim vazirining Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni ta'minlash bo'limi boshlig'i S.Mirzakarimov zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish kotibi



A.Agasiyev

Namangan viloyatida tanlovga qo'yilgan lotlardagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida ma'lumot

Lot raqami	Tuman (shahar) nomi	Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti raqami
117-lot	Namangan shaxar	1,5,9,20,24,27,35,43,66
118-lot	Davlatobod tumani	7,23,41
119-lot	Davlatobod tumani	29,47,54,55
120-lot	Davlatobod tumani	37,40,48
121-lot	Mingbuloq tumani	19,22,32,33,35,36,46,48,56
122-lot	Kosonsoy tumani	17,25,28,19,37,38
123-lot	Norin tumani	1,7,4
124-lot	Norin tumani	2,8,6
125-lot	Pop tumani	1,2,13,22,44
126-lot	Pop tumani	17,20,27,52,54
127-lot	To'raqo'rg'on tumani	1,8,36
128-lot	To'raqo'rg'on tumani	18,28,40
129-lot	Uychi tumani	1,2,7,11,22
130-lot	Uchqo'rg'on tumani	1,10,11,13,17
131-lot	Uchqo'rg'on tumani	16,29,40,50,51,56
132-lot	Chortoq tumani	1,2,4,12,13,
133-lot	Chortoq tumani	5,6,9,22,24
134-lot	Chortoq tumani	8,20,21,23,26,28
135-lot	Chust tumani	20,21,22,41,44
136-lot	Chust tumani	29,37,39,47,60,
137-lot	Chust tumani	42,46,49,53,69
138-lot	Yangiqo'rg'on tumani	3,8,12,27,26
139-lot	Yangiqo'rg'on tumani	5,20,36,37,46

Namangan viloyatida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing faoliyatini yuritish maqsadida tanlovda ishtirok etish uchun hujjat topshirgan tadbirkorlar to'g'risida ma'lumot

T/r	Korxonona nomi
1	1 TT Xizmat markazi
2	Akbar mumina Amir
3	Al mashriq Xabibullo xoji
4	Arbag'ish Xumo
5	Baxt Omad Fayz Servis
6	Blek Bul Biznes
7	Bless Him
8	Bolajon noza servis savdo
9	Chust Sher Suvor
10	Chust Taomlari xizmati
11	Dastarxan Trade
12	Good Foods New
13	Halol Baby maxsulotlari
14	Iftixor Ishonch
15	Iftixor Xamkor Xayot
16	Ishlab chiqarish baza
17	Kids Food Sales
18	Limpid Dale
19	Madadkor Taminot Savdo
20	Navbaxor Zamin Oziq ovkat
21	Oziq-Ovqat MCHJ
22	Pop Maxsus Barkamol Savdo
23	Relaks Impeks
24	Rivoj Marxabo

25	Sifat Sof Chorva
26	Umi-Xam Foods
27	Xilol Savdo
28	Yetti Chinor
29	Zoxida bonu

Tanlov komissiyasining malaka talablari natijalari to'g'risida ma'lumot

1	1 TT Xizmat markazi	Birinchi bosqich malaka talablari bo'yicha hamma hujjatlar taqdim etildi, O'tdi.
2	Akbar Mubina Amir	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
3	Al-mashriq Xabibullo xoji	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
4	Arbag'ish Xumo	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
5	Baxt Omad Fayz Servis	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
6	Blek Bul Biznes	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
7	Bless Him	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 36-bandida Tanlovda dastlab Komissiya tomonidan talabgorlarni malaka talablari tanlovi o'tkaziladi. Malaka talablari tanlovidan o'tmagan

		talabgorlarning ichki konverti (texnik va tijorat taklifi) ochilmadi va talabgor tanlovdan chetlatiladi. O'tmadi.
8	Bolajon noza servis savdo	Birinchi bosqich malaka talablari bo'yicha hamma hujjatlar taqdim etildi, O'tdi.
9	Chust Sher Suvor	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertda tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
10	Chust Tamorqa xizmati	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertda tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
11	Dastarxan Trade	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertda tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
12	Good Foods New	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407qarori bilan tasdiqlangan ilovasi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizamning 15-bandiga ko'ra umumiy ovqatlanish xizmatida kamida bir yillik tajribaga ega emas. O'tmadi.
13	Halol Baby maxsulotlari	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407qarori bilan tasdiqlangan ilovasi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizamning 15-bandiga ko'ra umumiy ovqatlanish xizmatida kamida bir yillik tajribaga ega emas. O'tmadi.
14	Iftixor Ishonch	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407qarori bilan tasdiqlangan ilovasi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizamning 15-bandiga ko'ra umumiy ovqatlanish xizmatida kamida bir yillik tajribaga ega emas. O'tmadi.
15	Iftixor Xamkor Xayot	1.Injener-texnolog diplomi va buyruq nusxasini taqdim qilinmagan.

		2.Oshxona xodimlarining tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilmadi. O'tmadi.
16	Ishlab chiqarish baza	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
17	Kids Food Sales	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
18	Limpid Dale	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407qarori bilan tasdiqlangan ilovasi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizomning 15-bandiga ko'ra umumiy ovqatlanish xizmatida kamida bir yillik tajribaga ega emas. O'tmadi.
19	Madadkor Taminot Savdo	Birinchi bosqich malaka talablari bo'yicha hamma hujjatlar taqdim etildi, O'tdi.
20	Navbaxor Zamin Oziq ovkat	Birinchi bosqich malaka talablari bo'yicha hamma hujjatlar taqdim etildi, O'tdi.
21	Oziq-Ovqat	Birinchi bosqich malaka talablari bo'yicha hamma hujjatlar taqdim etildi, O'tdi.
22	Pop Maxsus Barkamol Savdo	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
23	Relaks Impeks	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.

24	Rivoj Marxabo	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
25	Sifat Sof Chorva	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
26	Umi-Xam Foods	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
27	Xilol Savdo	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
28	Yetti Chinor	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.
29	Zoxida bonu	1.Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundgi 407-son qarori bilan tasdiqlangan 2 ¹ -ilova 38-bandida konvertida tegishli hujjatlar tanlov hujjatlari talablariga mos rasmiylashtirilmagan yoki belgilangan tartibdagi hujjatlar taqdim qilinmagan, Komissiya ushbu talabgorning taklifini ko'rib chiqilmadi va talabgor tanlovdan chetlatildi . O'tmadi.

Tanlov komissiyasi tomonidan ishtirokchilarning texnik va tijoriy takliflarini baholash natijalari to'g'risida ma'lumot

Lot raqami	Maktabgacha ta'lim tashkiloti raqami	1-o'rin	2-o'rin	3-o'rin
117-lot	1,5,9,20,24,27,35,43,66	“Bolajon noza servis savdo”	“Madadkor Taminot Savdo”	“Navbaxor Zamin Oziq ovqat”
118-lot	7,23,41	“Madadkor Taminot Savdo”	“Bolajon noza servis savdo”	“Navbaxor Zamin Oziq ovqat”
119-lot	29,47,54,55	“Madadkor Taminot Savdo”	“Bolajon noza servis savdo”	“Navbaxor Zamin Oziq ovqat”
120-lot	37,40,48	“Madadkor Taminot Savdo”	“Bolajon noza servis savdo”	“Navbaxor Zamin Oziq ovqat”
121-lot	19,22,32,33,35,36,46,48,56	-	-	-
122-lot	17,25,28,19,37,38	-	-	-
123-lot	1,7,4	-	-	-
124-lot	2,8,6	-	-	-
125-lot	1,2,13,22,44	-	-	-
126-lot	17,20,27,52,54	-	-	-
127-lot	1,8,36	-	-	-
128-lot	18,28,40	“Oziq-Ovqat”	“1 TT Xizmat markazi”	-
129-lot	1,2,7,11,22	-	-	-
130-lot	1,10,11,13,17	-	-	-
131-lot	16,29,40,50,51,56	-	-	-
132-lot	1,2,4,12,13	-	-	-
133-lot	5,6,9,22,24	-	-	-
134-lot	8,20,21,23,26,28	-	-	-
135-lot	20,21,22,41,44	-	-	-
136-lot	29,37,39,47,60,	-	-	-
137-lot	42,46,49,53,69	-	-	-
138-lot	3,8,12,27,26	-	-	-
139-lot	5,20,36,37,46	-	-	-